

## G'azal mulkingning sultoni Alisher Navoiy tavalludining 581 yilligi

Alisher Navoiy turk dunyosi adabiyotining eng mashhur vakilidir. Chunki hech kim O'zbek adabiy tili va adabiyotining ravnaqi uchun ulardek xizmat qilgan emas. Navoiy ijodi turkiy adabiyotining eng yuksak cho'qqisidir. Chunki hech kim unga qadar bu tilda bunchalik ko'p va xo'b yozmagan. Navoiy barcha turkiy xalqlarning eng buyuk shoiridir. Chunki u o'zini "Xitoydan to Xurosongacha yoyilgan turkiy qavm" larning o'z shoiri, deb biladi. Ularni bir adabiy til bayrog'i ostida birlashtirdi, "yakqalam" qildi. Buyuk shoir taqdir taqozosi bilan Xurosonda uning poytaxti Hirotda yashab o'tdi. Qadim zamonlardan, shu jumladan, Navoiy yashagan davrdan buyon Xuroson va Movarounnahr bir mamlakat bo'lib bir taxt egasi ixtiyorida kelganligi va aholisining asosiy nufuzini turkiy xalqlar tashkil etganligi ma'lum.



Mamlakatimizning turli ta'lim muassasalarida shoir tavallud kuni munosabati bilan tadbirlar o'tkazilib kelinmoqda. Ana shunday tadbirlardan biri Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy tadqiqotlar universitetda ZOOM onlayn dasturi orqali buyuk shoir va mutafakkir, atoqli davlat va jamoat arbobi, Alisher Navoiy tavalludining 581 yilligiga bag'ishlangan "Navoiy yodi-ila yashaymiz mudom" deb nomlangan adabiy-badiiy, ma'rifiy tadbir bo'lib o'tdi. Unda universitet Yoshlar masalalari hamda ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor R.Choriyev, universitet matbuot xizmati rahbari R.Jumaniyozov, universitet professor-o'qituvchilari, "Yer resurslarini boshqarish" fakulteti dekani Sh.Narbaev, dekan o'rinbosari H.Eshova, fakultet tyutor, fakultet professor-o'qituvchilari, talaba-yoshlari hamda tadbirimiz mehmoni Toshkent sharqshunoslik instituti dotsenti, navoiyshunos olimi Shaxnoza Asqarova ishtirok etishdi. Darhaqiqat, insonga bo'lgan muhabbat, uning g'ami, tashvishi bilan yashash Navoiyga xos fazilatdir. Aynan ushbu jihatlar Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy tadqiqotlar universitetda tashkil etilgan adabiy-badiiy, ma'rifiy tadbirning

mazmun-mohiyatini tashkil qildi. Talabalar tomonidan Navoiy g'azallari, ruboiylaridan namunalar o'qildi. Professor-o'qituvchilar, taniqli san'atkorlar ijrosida shoir she'riyati asosida yaratilgan qo'shiqlar aytildi, mumtoz musiqalar yangradi. Har bir chiqishda Navoiy dahosiga hurmat-ehtiroom ko'rsatildi. Alisher Navoiy tavalludining 581 yilligiga bag'ishlangan shu kabi tadbirlar davom etmoqda.

**YeRB fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini Hurriyat Eshova axboroti**